

NUTQI TO'LIQ RIVOJLANMAGAN BOLALAR LUG'ATINI O'YIN TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Axmadjonova Maxliyo

Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti pedagogika - psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti Logopediya yO'nalishi magistratura talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqi rivojlanmagan bolalarni O'yin asosida so'z boyligini shakllantirish bo'yicha korreksion- rivojlantiruvchi ta'limning mazmuni, usullari va tashkil etilishi og'zaki nutqini rivojlantirishda o'yinlarning ahamiyati yoritilgan .

Kalit so'zlar: nutq rivoji, lug'at boyligi, o'yin texnologiyalari, maxsus pedagogika, inklyuziv ta'lim.

Аннотация: В этой статье его речь не полностью развита. коррекционно-методическое обеспечение формирования словарного запаса детей на основе игры содержание, методы и организация развивающего обучения. Освещено значение игр и игрушек в развитии

Ключевые слова: развитие речи, словарный запас, игровые технологии, специальная педагогика, инклюзивное образование.

Annotation: In this article, his speech is not fully developed. for the formation of children's vocabulary based on games content, methods, and organization of developmental learning. The importance of games and toys in development is highlighted

Keywords: speech development, vocabulary, game technologies, special pedagogy, inclusive education.

Nutqning to'liq rivojlanmaganligi (NTTR) bolalarda turli sabablarga ko'ra yuzaga keladigan jiddiy holat bo'lib, o'z vaqtida korreksion-pedagogik yordamni talab etadi. NTTRga xos belgilar orasida lug'at boyligining kamligi, agrammatizm va talaffuzdagi kamchiliklar kuzatiladi. Bu holat bolaning umumiy intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy logopediya va maxsus pedagogikada ushbu muammolarni bartaraf etishda an'anaviy usullar bilan bir qatorda o'yin texnologiyalaridan foydalanish katta samaradorlik ko'rsatmoqda. O'yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yetakchi faoliyat turi hisoblanadi va ularning nutqiy faolligini shakllantirishda tabiiy, qiziqarli muhit yaratadi.

O'yin texnologiyalarining o'rni va afzalliklari : O'yin texnologiyalari bolalarning idrok, xotira, diqqat, tafakkur kabi psixik jarayonlarini rivojlantirish bilan birga, ularni tilni mazmunli tarzda qo'llashga undaydi. NTTR bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarda o'yinlarning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Motivatsiyani oshirish: O'yin jar

TIJORAT BANKLARIDA MIKROQARZLARNI NAZORAT QILISHDA RISKLARNI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILASHTIRISH

Ilmiy rahbar: Arziboyeva Ravzahon Satarovna

Andijon davlat texnika instituti

“Buxgalteriya hisobi” kafedrasida katta o‘qituvchisi,

Muhammadsoliyev Shaxzodbek Elmurodjon o‘g‘li

Andijon davlat texnika instituti

“Iqtisodiyoti va boshqaruv” fakulteti

“Bank ishi va audit” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Email: shaxzodbekmuhammadsoliyev8@gmail.com

Globalashuv jarayonlari jadal sur‘atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy aloqalar tobora kengayib bormoqda. Bunday sharoitda iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan bank tizimini e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Zamonaviy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida bank xizmatlarining sifatli tashkil etilishi, xususan, banklarning asosiy xizmat turlaridan biri hisoblangan kredit operatsiyalarining samarali amalga oshirilishi har bir davlat iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi.[1]

Risk tushunchasi turli manbalarda turlicha talqin qilinadi. Ilmiy adabiyotlarda unga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lsa, huquqiy hujjatlarda esa o‘ziga xos tarzda izohlanadi. “Risk” atamasi rus tiliga qadimgi yunon tilidan kirib kelgan bo‘lib, dastlab dengizdagi xavfli qoyalar bilan bog‘liq ma‘noni anglatgan, ya‘ni kemalarning halokatga uchrashi xavfini ifodalagan.

Riskni faqat alohida hodisa sifatida emas, balki turli omillar va vaziyatlar bilan o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilish zarur. Masalan, xomashyoni import qilib, tayyor mahsulotni eksport qiluvchi korxonalar valyuta riskiga duch keladi. Ular uzoq muddatli shartnomalarda narxlarni xorijiy valyutada belgilagan bo‘lsa, valyuta kursidagi o‘zgarishlar import va eksport qiymatlariga bir xil ta‘sir ko‘rsatadi. Natijada xarajatlar oshsa ham, daromadlar bilan qoplanishi mumkinligi sababli umumiy risk darajasi muvozanatlashadi.[2]

Bank faoliyatini risksiz tasavvur qilish mumkin emas, chunki har qanday iqtisodiy faoliyatda muayyan darajada risk mavjud bo‘ladi. Banklar uchun asosiy masala riskdan butunlay qochish emas, balki uni oldindan aniqlash va imkon qadar kamaytirishdir. Risklarni boshqarish jarayonida bank o‘z mablag‘larini yo‘qotish, daromad kamayishi yoki qo‘shimcha xarajatlar yuzaga kelishining oldini olishga harakat qiladi.[3]

Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda kredit risklarini boshqarish bo‘yicha bir qator me‘yoriy hujjatlar mavjud bo‘lib, ular bank faoliyatini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tijorat banklarida kredit risklarini samarali boshqarish ularning

barqaror faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Kredit riski mijozning o'z qarz majburiyatlarini to'liq va o'z vaqtida bajara olmasligi bilan bog'liq bo'lib, uni boshqarish uchun quyidagi yondashuvlar qo'llaniladi:[4]

- Kreditlarni baholash tizimini takomillashtirish, jumladan kredit skoring modellari va moliyaviy tahlil usullaridan foydalanish;
- Kredit portfelini turli sohalar va hududlar bo'yicha diversifikatsiya qilish orqali riskni kamaytirish;
- Kredit berishda aniq limit va mezonlarni belgilash;
- Kreditlarni doimiy monitoring qilish va qarz oluvchilarning moliyaviy holatini muntazam baholash;
- Zarur hollarda kredit risklarini sug'urtalash;
- Kredit ajratish jarayonida hujjatlarni to'liq rasmiylashtirish va qarorlarni qat'iy nazorat qilish;
- Bank xodimlarining malakasini oshirib borish;
- Zamonaviy raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish;
- Xalqaro tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish.

Ushbu chora-tadbirlar tijorat banklariga kredit risklarini samarali boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va faoliyat samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda banklarning kredit siyosati, kredit portfeli sifati va undan foydalanish darajasiga alohida e'tibor qaratiladi. Kredit portfelinig to'g'ri shakllantirilishi bank faoliyatining samaradorligini ko'rsatadi. Kredit risklarini boshqarishning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:[5]

- Risk darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish choralari ko'rish;
- Qarz oluvchilarning kreditga layoqatligini va moliyaviy holatini tahlil qilish hamda riskni prognoz qilish;
- Muammoli kreditlarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish choralari ishlab chiqish;
- Kredit qo'yilmalarini diversifikatsiya qilish orqali ularning likvidligi va daromadlilikini ta'minlash;
- Kredit olgan mijozlar bilan doimiy aloqani saqlab turish.

1-jadval. Mikroqarzarlar bo'yicha asosiy risk turlari[6]

Risk turi	Tavsifi	Ta'sir darajasi	Ehtimollik
Kredit riski	Qarzdorning qarzni qaytarmaslik ehtimoli	Yuqori	Yuqori
Likvidlik riski	Bankning o'z majburiyatlarini vaqtida bajara olmasligi	O'rta	O'rta
Operatsion risk	Ichki tizimlar yoki xodimlar xatolari	O'rta	Yuqori

Bozor riski	Foiz stavkalari yoki valyuta kursi o'zgarishi	Past	O'rta
Reputatsion risk	Bank obro'siga putur yetishi	Yuqori	Past

Tijorat banklarida mikroqarzlarni bilan bog'liq risklar ichida eng muhimlaridan biri kredit riski hisoblanadi. Bu risk qarzdorning o'z majburiyatlarini vaqtida yoki to'liq bajarmaslik ehtimoli bilan bog'liq. Mikroqarz oluvchilar odatda kichik biznes egalari yoki barqaror daromadga ega bo'lmagan jismoniy shaxslar bo'lgani sababli, bu turdagi kreditlarda risk darajasi yuqori bo'ladi. Kredit riskining yuzaga kelishiga mijoz daromadining beqarorligi, moliyaviy savodxonlikning pastligi, kredit tarixining yetarli emasligi yoki salbiy bo'lishi kabi omillar ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli banklar kredit berishdan oldin mijozning to'lov qobiliyatini chuqur tahlil qilishi, skoring tizimlaridan foydalanishi va kreditlarni bosqichma-bosqich ajratish orqali riskni kamaytirishga harakat qiladi.[7]

Likvidlik riski ham mikroqarzlarni portfelini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Bu risk bankning o'z majburiyatlarini bajarish uchun yetarli pul mablag'lariga ega bo'lmasligi bilan bog'liq. Agar bank tomonidan berilgan kreditlar o'z vaqtida qaytmasa yoki depozitlar kutilmaganda yechib olinadigan bo'lsa, bank likvidlik muammosiga duch kelishi mumkin. Mikroqarzlarni sonining ortishi bankdan doimiy ravishda likvid resurslarni talab qiladi. Shuning uchun banklar aktiv va passivlarni muvozanatlash, likvid zaxiralarni shakllantirish hamda pul oqimlarini oldindan rejalashtirish orqali bu riskni boshqaradi.

Operatsion risk bank faoliyatidagi ichki jarayonlar, texnologiyalar yoki inson omili bilan bog'liq xatolar natijasida yuzaga keladi. Mikroqarzlarni sonining ko'pligi operatsion jarayonlarni murakkablashtiradi va xatoliklar ehtimolini oshiradi. Masalan, xodimlarning noto'g'ri qaror qabul qilishi, axborot tizimlaridagi nosozliklar yoki firibgarlik holatlari operatsion riskni yuzaga keltiradi. Bunday risklarni kamaytirish uchun banklar ichki nazorat tizimini kuchaytiradi, avtomatlashtirilgan dasturlarni joriy etadi hamda xodimlar malakasini oshirishga e'tibor qaratadi.[8]

Bozor riski esa foiz stavkalari, valyuta kurslari va boshqa makroiqtisodiy omillarning o'zgarishi bilan bog'liq. Mikroqarzlarni asosan milliy valyutada berilgan bo'lsa-da, umumiy iqtisodiy vaziyatdagi o'zgarishlar qarzdorlarning to'lov qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, inflyatsiyaning oshishi yoki foiz stavkalarining ko'tarilishi mijozlarning xarajatlarini ko'paytiradi va kreditni qaytarish imkoniyatini pasaytiradi. Shu sababli banklar bozor riskini baholashda stress-testlar va tahliliy usullardan foydalanadi hamda foiz siyosatini moslashuvchan tarzda yuritadi.[9]

Reputatsion risk bank obro'siga putur yetishi bilan bog'liq bo'lib, u bilvosita moliyaviy yo'qotishlarga olib keladi. Agar bank mijozlarga nisbatan adolatsiz siyosat yuritrsa, xizmat sifati past bo'lsa yoki ommaviy shikoyatlar ko'payib ketsa, bu bankka bo'lgan ishonchni kamaytiradi. Natijada mijozlar soni qisqaradi, depozitlar kamayadi

va bankning bozor mavqei zaiflashadi. Shuning uchun banklar shaffoflikni ta'minlash, mijozlar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatish va xizmat sifatini doimiy ravishda yaxshilash orqali reputatsion riskni kamaytirishga intiladi.

Umuman olganda, mikroqarzarlar bilan bog'liq risklar o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, ularni kompleks yondashuv asosida boshqarish zarur. Kredit riskining ortishi likvidlik muammolarini keltirib chiqarishi mumkin, operatsion kamchiliklar esa boshqa risklarning kuchayishiga olib keladi. Shu bois tijorat banklari zamonaviy risk-boshqaruv tizimlarini joriy etib, barcha risk turlarini birgalikda baholash va nazorat qilish orqali mikroqarzarlar samaradorligini oshirishi mumkin.[10]

Tijorat banklarida mikroqarzlarni nazorat qilish va ular bilan bog'liq risklarni baholash tizimini takomillashtirish bugungi kunda bank faoliyatining barqarorligi va samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mikroqarzarlar asosan kichik miqdordagi bo'lsada, ularning ko'pligi va keng tarqalganligi bank uchun sezilarli kredit risklarini yuzaga keltiradi. Shu sababli, risklarni aniqlash, baholash va boshqarish mexanizmlarini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish zarur.

Risklarni baholash tizimini takomillashtirishda kredit skoring modellari, mijozlarning moliyaviy holatini chuqur tahlil qilish, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish muhim o'rin tutadi. Shuningdek, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, monitoring jarayonlarini kuchaytirish va kredit siyosatini izchil yuritish orqali risklarni kamaytirish mumkin.

Bundan tashqari, bank xodimlarining malakasini oshirish, xalqaro tajribalarni o'rganish hamda ilg'or amaliyotlarni joriy etish risklarni samarali boshqarish imkoniyatini kengaytiradi. Umuman olganda, mikroqarzarlar bo'yicha risklarni baholash tizimini takomillashtirish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, kredit portfeli sifatini oshirish va iqtisodiyot rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki normativ-huquqiy hujjatlari.
2. O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi "Bank siri to'g'risida"gi Qonuni.
4. Mishkin F.S. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. — Pearson.
5. Rose P.S., Hudgins S.C. *Bank Management and Financial Services*. — McGraw-Hill.
6. Hull J.C. *Risk Management and Financial Institutions*. — Wiley.
7. Saunders A., Cornett M.M. *Financial Institutions Management: A Risk Management Approach*. — McGraw-Hill.
8. Jo'rayev T.T. *Bank ishi*. — Toshkent.
9. Abdurahmonov I.X. *Kredit va kredit munosabatlari*. — Toshkent.

10. Internet manbalari: Markaziy bank, moliyaviy tahlil va bank faoliyatiga oid ilmiy maqolalar.